



SANOAT INFRAZILMASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI

Karimova Gulzora

Alfraganus Universiteti iqtisodiyot yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: *Har qanday milliy iqtisodiyotning lokomotiv tarmog'i – bu sanoat tarmog'idir. Sanoat tarmog'ini rivojlantirish to'g'ridan-to'g'ri sanoat infratzilmasi bilan uzyiy bo'gliqlikka ega. Ilmiy maqolada sanoat infratzilmasining mohiyati, mazmuni va ilmiy asoslari bilan tanishib chiqamiz.*

Kalit so'zlar: *Infratzilma, iqtisodiy tizim, sanoat, ishlab chiqarish, milliy iqtisodiyot, xalq xo'jaligi, modernizatsiyalash.*

Infratzilma — bu har qanday yaxlit iqtisodiy tizim va tuzilmalarning mavjud bo'lish sharti hisoblangan tarkibiy qismidir. So'zma-so'z ifodalaganda, infratzilma - bu iqtisodiy tizimning asosi, poydevori, ichki tuzilmasi ma'nolarini ifodalaydi. Ishlab chiqarish infratzilmasining asosiy mohiyati «ishlab chiqarishning umumiyl shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» kabi vazifalarni bajarish bilan belgilanadi. O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi juda ko'plab omil va xususiyatlarni, jum ladan, respublikamizning geosiyosiy va geostrategik holati, iqtisodiy tizimni bosqichma-bosqich isloq qilish, davlatning faol belgilovchi roli, islohotlarga qadar davrdagi iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishidagi nomuvofiqliklar, kuchli ijtimoiy siyosat zarurligi kabilarni e'tiborga olgan holda amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga bozor mexanizmlarining samarali amal qilishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlarni, shu jum ladan, ishlab chiqarish infratzilmasining to'laqonli faoliyatini ta'm inlash davlatning asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

«Infratzilma» atamasi lotincha «infra» — quyi, osti, «structure» — tuzilma, joylashuv so'zlaridan paydo bo'lgan. «Infratzilma» atamasining keng qo'llanilishiga qaramay, bu tushunchani turlicha talqin qilish hollari uchrab turadi. Bir guruh olimlar infratzilmaning funksiyasini ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatishda deb qarab, uni xizmat ko'rsatishning yaxlit tizimi sifatida belgilaydi. Shuningdek, ba'zilar «infratzilmani» insonni hayoti va ijtimoiy ishlab chiqarishda xizmatlar, ishlab chiqarishdagi o'ziga xos m ehnat jarayonlari majmuasi», «moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, xalq xo'jaligida iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud xalq xo'jaligining tarmoqlari va tarmoq ichi sohalari yig'indisi» sifatida ta'riflasa, ba'zilar infratzilmaning ahamiyatini «ishlab chiqarishning umumiyl shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadi. «Moddiy ishlab chiqarishga ishlab chiqarish xizmatlari ko'rsatuvchi, milliy iqtisodiyotda iqtisodiy aylanishni ta'minlovchi, aholi uchun xizmatlar va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqaruvchi, atrof-muhitni takror ishlab chiqarish va muhofaza qilish uchun mavjud iqtisodiyot tarmoqlari va tarm oq ichi sohalari yig'indisi» sifatida ta'riflasalar, ba'zilar infratzilmaning ahamiyatini «ishlab chiqarishning



umumi shart-sharoitlarini yaratish», «asosiy ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlash» orqali belgilab, u orqali faqat ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish tizimini tushunadilar.

R.Ioximsen infratuzilmani xo'jalik faoliyati darajasini oshiruvchi, hududlarda xo'jalik birligini tashkil etishga imkoniyat yaratuvchi bir xilda sarf qilgan xarajatlariga oladigan daromadlarini tenglashtiruvchi moddiy, shaxsiy va institutsional faoliyat lurlari va ular tashkilotlarining yig'indisi sifatida talqin qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashtirishda infratuzilmani rivojlantirish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, bunday xususiyatlardan biri bo'lib infratuzilmaning samarali amal qilishini ta'minlashda davlatning alohida rolini zarurligi hisoblanadi.

Chunki, bunday zaruriyat quyidagi holatlar bilan izohlanadi:

- infratuzilma sohasidagi talab va taklifni tartibga solib turuvchi bozor mexanizm ining samarali amal qilmasligi;
- infratuzilma obyektlari xizmatiga bo'lgan narxlar bo'yicha talabning elastik emasligi;
- infratuzilma xizmatlari bozorning notejis tarkibiy tuzilishi natijasida bozordagi muvozanatga erishishda davlat tomonidan aralashuvning zarurligi;
- infratuzilma sohasi faoliyatining rivojlanishi asosiy tarm oqning rivojlanish darajasiga bog'liqligi va boshqalar. Ishlab chiqarish infratuzilmasi subyektlarini milliy masshtabda respublika va mahalliy infratuzilm alarga, hududlar bo'yicha ichki va tashqi ishlab chiqarish infratuzilmalariga bo'linadi.

Respublikamizda infratuzilmani shakllantirish borasida davlat tomonidan quyidagi chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish ko'zda tutildi:

- infratuzilmaning barcha subyektlari majmuasini shakllantirish;
- infratuzilma subyektlari o'rtaqidagi bevosita xo'jalik aloqalarini liar tom onlam a rivojlantirish;
- infratuzilmaning barcha subyektlari faoliyatini atroflicha tashkil etish;
- infratuzilma unsurlarini rivojlantirib, yangilarini vujudga keltirish;
- iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi idoralarni barpo etish;
- bozor sharoitida ishlay oladigan malakali kadrlarni tayyorlash.

Har qanday ishlab chiqarish infratuzilmasi asosi boshqariladigan obyekt va boshqaruvchi subyektlardan tashkil topadi. Boshqariladigan va boshqaruvchi tizimlar o'rtaqidagi aloqa ishlab chiqarish korxonalari bilan infratuzilmaning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi.

Ishlab chiqarish infratuzilm asini boshqarish 2 turda amalga oshiriladi:

- obyektlarni boshqarish orqali;
- subyektlarni boshqarish oqali.

Sanoat tarmoqlari tuzilmasini tavsiflash uchun ayrim tarmoqlar o'rtaqidagi ma'lum ishlab chiqarish aloqadorligini ifodalovchi miqdoriy nisbatlami aniqlab olish kerak. Bu muammoni hal etish uchun bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri tarmoqlar o'rtaqidagi nisbatlami ifodalasa, ikkinchisi ma'lum davr ichidagi tuzilmaviy o'zgarishlami, uchinchisi esa, ishlab chiqarish aloqalarini ifodalaydi. Tarmoq tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi;

- mustaqil sanoat tarmoqlarining soni;



- tarmoqlaming sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi salmog'i;
- tarmoq rivojining sur'ati;
- tarmoqning ilgarilab ketish koeffisiyenti.

Mustaqil sanoat tarmoqlarining soni mamlakat industrial taraqqiyoti, uning iqtisodiy va ilmiy-texnik salohiyati, iqtisodiy jihatdan mustaqilligini ifodalaydi. Tarmoq strukturasi uning yalpi mahsulotining sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmidagi ulushi, xodimlar soni va asosiy fondlar qiyomatidagi salmog'i ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi.

Sanoat tarmoqlari orasidagi yuzaga kelgan mutanosibliklar va ulaming o'zgarishiga ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darjasini hamda boshqa bir qator omillar ta'sir etadi. Sanoat ishlab chiqarishi tarmoq tuzilmasini belgilovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

- fan-texnika taraqqiyoti va innovatsiyalar, ulaming yutuqlarini ishlab chiqarishta joriy etish;
- material va yoqilg'i, energetika resurslarining iqtisodiy tejalishini kuchaytirish;
- ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, diversifikatsiyalash, ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish darjasini;
- sanoat ishlab chiqarishining o'sish sur'atlari;
- aholining moddiy va madaniy darjasini o'sishi;
- ijtimoiy-tarixiy sharoitlar;
- mamlakatning tabiiy resurslari va ulami o'zlashtirish darjasini;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o'mi va boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorligi.

Sanoat tarmoq tuzilmasi o'zgarishiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri fan-texnika taraqqiyotidir. Fan texnika taraqqiyoti eng avvalo, yangi mehnat vositalari va mahsulotning yangi turlarini yaratish, mavjud asbob-uskunalar va texnologiya jarayonlarini takomillashtirish, yangilarini joriy etish bilan bogiiq. Bu esa, mavjud sanoat tarmoqlaridan yangidan-yangi sohalaming ajralib chiqishiga va shakllanishiga turtki beradi. Natijada progressiv hisoblangan avtomobilsozlik,

asbobsozlik, radiotexnika va elektronika, lazer texnologiyasi tez sur'allar bilan rivojlanadi.

Sanoat tuzilmasining o'zgarishiga ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari - konsentratsiyalash, mahalliylashtirish va diversifikatsiyalash juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishda kichik korxonalaming ko'payishi tarmoq taraqqiyotini tezlashtirgani holda uning xmiumsanoat mahsulotidagi miqyosi oshishiga olib keladi. Mahalliylashtirish zamonaviy talablarga javob bemvchi, raqobatdosh va import o'mini bosuvchi mahsulotlami ishlab chiqarish hajmini oshirish, asossiz import hajmini qisqartirish, yangi ish oinlarini yaratish kabi masalalami hal etadi. Diversifikatsiyalash esa korxona va tarmoqlaming faoliyat sohalarini o'zgartirish va kengaytirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlami ko'paytirish va ulaming xilma-xillagini ta'minlaydi. Mustaqillik davrida ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash tufayli mashinasozlikda butlovchi buyumlar sanoati, asbob-uskuna sanoati, asbobsozlik, elektronika va boshqa sohalar tashkil topdi.

Aholining moddiy farovonligining o'sishi ham sanoat tarmoqlari tuzilmasining o'zgarishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ta'siri ostida engil va oziq-ovqat sanoatlarida chiqariladigan mahsulotlar nomenklaturasi va assortimenti o'zgaradi, shuningdek, madaniy-



maishiy buyumlar - mebel, televizor, muzlatkichlar, konditsionerlar, kir jaivish mashinasi, mototsikl, velosiped, sport anjomlarini ishlab chiqaradigan maxsus tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalari tashkil topadi. Sanoat tarmoqlari tuzilmasiga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan yana biri - mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'mi hisoblanadi.

Ishlab chiqarish taraqqiyotining istiqbolini aniqlash, hisob-kitob ishlarini amalgamoshirish, uning ahvolini tahlil etish maqsadida sanoat tarmoqlari guruhlarga ajratiladi. Gumhlarga ajratishning eng muhim tamoyili tayyorlanadigan mahsulot iqtisodiy mazmunining bir xilligidir. Sanoat tarmoq tuzilmasining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi:

- fan-texnika taraqqiyoti va innovatsion faoliyat;
- ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish shakllari – konsentratsiyalash;
- ixtisoslashtirish;
- mahalliylashtirish;
- kooperativlashtirish;
- diversifikatsiyalash va hududiy joylashtirish.

Respublika iqtisodiyotida va uning yetakchi tarmog'i bo'lgan sanoat sohasida amalgamoshirilayotgan tarkibiy siljishlar yaqin kelajakda milliy iqtisodiyot salohiyatini yanada jmqori darajaga koirish va sanoatning eksport ustunligini ta'minlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Tarkibiy (tuzilmaviy) siyosat haqida mulohaza yuritishdan oldin, tuzilmaning o'zi nima ekanligini bilib olishimiz zarur. Tarkib (tuzilma) lotincha, «structura» so'zidan olingan bo'lib, narsalar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq ravishda joylashishini, tuzilishini bildiradi. Tarkibiy siyosatining moxiyati sohalarning tuzilmaviy jihatlarini belgilab berish, yo'lga solib turishdan iboratdir.

Rus iqtisodchi olimi S.D. Alekseyevichning fikricha, iqtisodiyot tarkibi uzoq muddatli davrda mamlakat iqtisodiy o'sishining muhim shart-sharoitlarini yuzaga keltiradi. U miqdoriy va sifat xususiyatlari ega bo'lib, milliy iqtisodiyotdagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Iqtisodiyot tarkibi mamlakat milliy iqtisodiyotining barqarorligi va havfsizligini tavsiflaydi. Shuning uchun iqtisodiyotda miqdoriy va sifat jihatdan tarkibiy o'zgarishlarni amalgamoshirish davlat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlaridan biridir.

Iqtisodiyotda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalgamoshirish, ya'ni iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish ishlab chiqarishning texnologik yangilanishi va uning tashqi hamda ichki o'zgarishlarga moslashishi zaruriyatini aniqlovchi ishlab chiqarish kuchlarining katta miqdordagi tarkibiy o'zgarishlarini ifodalaydi. Bunda muhim maqsad: ishlab chiqarishni qayta tashkil etish, jumladan korxonalarining samarasiz bo'g'inlarini yo'q qilish yoki qo'shib yuborish, jismonan va ma'nан eskirgan asosiy vositalarni almashtirish, texnik yangiliklarni kiritish hamda yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishdir. Bularning bari tarmoqlararo, hududiy, texnologik, institutsional va ishlab chiqarishning boshqa muhim tarkibiy siljishlariga olib keladi.


Iqtisodchi olim A.A.Kushnarevning fikricha, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar iqtisodiy samaradorlikni, jahon va milliy bozorlarda raqobatbardoshlikni kamaytiruvchi yoki oshiruvchi iqtisodiyotning turli tarmoqlari, sektorlari, hududlar, korxonalar turlari,



texnologik ukladlar va iqtisodiy tizimning boshqa elementlari o'rtasidagi o'zaro nisbatlarning mavjud o'zgarish hisoblanadi.

Ch.K.Karenovichning fikricha tub tarkibiy o'zgarishlar davrida milliy milliy iqtisodiyot boshqa davrlarga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lib, uning alohida tarmoqlari va sohalari rivojlanishida tengsizlik kuchayadi.

Takror ishlab chiqarishning hozirgi sharoitlarida iqtisodiy o'sish iqtisodiyot ko'laming o'sishi bilangina emas, balki iste'molda ham, ishlab chiqarishda ham tuzilmaviy siljishlar, ularning tezligi va samaradorligi bilan aniqlanadi.



1-chizma. Ishlab chiqarish infratuzilmasining maqsadi, asosiy vazifalari va tamoyillari Shuningdek, infratuzilmaning funksional xususiyati quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmoqlarida sarflangan mehnat unumli hisoblanadi, u milliy daromadning qiymatini ko'paytiradi;
- ishlab chiqarish infratuzilma tarmoqlarida mahsulot yangi moddiy-ashyoviy shaklda yaratiladi;
 - ishlab chiqarish infratuzilmasi tarmog'i mahsulotini zaxirada saqlash yoki omborga olish mumkin emas, chunki u tashish, saqlash va axborotni uzatish shaklida namoyon bo'ladi;
 - ishlab chiqarish infratuzilmasini yordamchi, va ayniqsa, ikkinchi darajali soha sifatida tavsiflash mumkin emas.



Infratuzilmaning vazifalari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- bozor munosabatlari ishtirokchilari m anfaatlarining amalga oshirilishini yengillashtirish;
- infratuzilma subyektlarining o‘z foydasini yuqori darajaga yetkazish maqsadida bozor ishtirokchilari xarajatlarini minimallashtirish;
- iqtisodiyotning alohida subyektlari va faoliyat turlarining ixtisoslashuvi asosida bozor munosabatlari subyektlari ishining tezkorligi va samaradorligini oshirish;
- bozorda tarkib topgan konyunkturadan kelib chiqqan holda mahsulot tayyorlashga bo‘lgan buyurtmalarni ko‘paytirgan yoki kamaytirgan holda ishlab chiqarish uchun bozor talabi indikatori vazifasini bajarish;
- bozor munosabatlarini tashkiliy jihatdan rasmiylashtirish;

Infratuzilmaning sanab o‘tilgan vazifalarining bajarilishi muayyan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darjasini, iqtisodiy tizim ning tarkibiy tuzilishi, infratuzilm a unsurlarining harakat doirasi uchun sharoitlarning yetarliligi, bozor mexanizmiga to‘sinqinlik qiluvchi om illarning mavjudligi kabi holatlar jiddiy ta ’sir ko’rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiyotda ishlab chiqarish infratuzilm asining amal qilish jarayoni samarali bo‘lishi uchun u quyidagi sifatlarga ega bo‘lmog‘i lozim:

Harakatchanlik. Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari ishlab chiqarish infratuzilmasida ham resurslarning sarflanishi erkinlik va raqobat kurashi ta’sirida yuqori harakatchanlik xususiyatiga ega bo‘lishi lozim. Bu esa ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan resurslarni bir joydan yanada samarali foydalanishi mumkin bo‘lgan boshqa joyga safarbar etish imkoniyati orqali baholanadi.

Bozorning barcha ishtirokchilari uchun foydalanish imkoniyati. Ishlab chiqarish infratuzilmasi unsurlarining tarkib topishi tabiiy ravishda — ehtiyoj va imkoniyatlar asosida olib borishi bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ma’lum maqsadlarning belgilangan tamoyillarga ham muvofiq kelishi lozim. Ya’ni, ishlab chiqarish infratuzilmasi mamlakatning barcha hududlarini qamrab olishi, joylashgan manzilidan qat’i nazar, mijozlarni o‘zları ishlab chiqargan mahsulotlar bilan ta’m inlashi lozim.

Moslashuvchanlik. Ishlab chiqarish infratuzilma bo‘g‘inlari iqtisodiy konyunktura, talab va taklif, raqobat darjasini va boshqa jarayonlarning holatidan kelib chiqqan holda o‘zaro birlashish, ajralish, o‘ziga yangi vazifalarni qabul qilish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Ishonchlilik. Ishlab chiqarish infratuzilma subyektlari ahamiyatini oshirishga shartnomalar bo‘yicha qabul qilingan majburiyatlarni qat’iy belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’m inlash orqali erishish lozim.

Barqarorlik. Ishlab chiqarish infratuzilm asining eng «nozik» tom oni — uning barqarorligining asosiy tarm oq va sohalar barqarorlik darajasiga bog‘liqligidir. Shunga ko‘ra, ishlab chiqarish in fratuzilm asi subyektlarida talab va taklif sharoitida ishlash uchun zaxiralarning mavjudligi taqozo etiladi. Har bir bo‘g‘inning ishida ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti hisobiga erishiluvchi samaradorlik. Aynan ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalari uchun faoliyat yo‘nalishlarining serqirraligi, yuqori darajadagi diversifikatsiya emas, balki ixtisoslashuv va m ehnat taqsimoti tavsifli hisoblanadi.



O‘zini-o‘zi tartiblash. Korxona belgilagan narx va uning chakana narxi o‘rtasidagi farq hisobiga tashkil topuvchi, cheklangan darom adlar doirasida amal qilib, muntazam ravishda bozorga moslashib turishga undovchi o‘zini-o‘zi tartiblash ishlab chiqarish infratuzilmasining harakat mexanizmi hisoblanadi. Ichki raqobatning mavjudligi. Iqtisodiyotning barcha jabhalari singari ishlab chiqarish infratuzilm asida ham uni kuchsizlantiruvchi, ishlab chiqarishni sekinlashtiruvchi omil — yakkahukm ronlik hisoblanadi. Shunga ko‘ra, yakkahukmronlikning vujudga kelishi va rivojlanishiga qarshi kurashuvchi turli bo‘g‘inlar o‘rtasidagi ichki raqobatning mavjudligi ishlab chiqarish subyektlari faoliyati samaradorligining asoslaridan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish infratuzilmasining iqtisodiy mohiyatini yanada chuqurroq oolib berish uning tarkibiy qismlarini aniqlash va rivojlanish xususiyatlarini ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

XULOSA

Sanoat juda ko‘p tarmoqlardan iborat bo‘lib, ulaming har biri korxonalar yigindisidan tashkil topadi. Tarmoq hosilboiishi uchun korxonalar bir necha ximumiy xususiyatlarga ega bo‘ladilar.

Sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarishning o‘zaro aloqadorligi va ulaming takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan miqdoriy nisbatlari tarmoq strukturasini tashkil etadi. U sanoat taraqqiyotida ro‘y beradigan texnika va texnologiya hamda innovatsiya rivojining darajasi, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar bilan bogiiq ravishda o‘zgaradi. Turli sanoat tarmoqlari o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari o‘zaro mahsulot almashish, tajribalami o‘rganish bilan tavsiflanadi.